

**SOCIAL SIGNIFICANCE OF WORK CEREMONY SONGS****Ismoilov Doston Eshmamat o'g'li**

Teacher of Uzun District Secondary School No. 44

**Abstract:** This article analyzes the social and spiritual essence of ceremonial songs, which have played an important role in the centuries-old cultural heritage of the Uzbek people. The study highlights their functional role in the life of the people, their aesthetic and educational significance, as well as their place in the system of music education. The author, as a new scientific approach, interprets ceremonial songs as the "emotional archive" of the people and emphasizes the need to form national aesthetic tastes and values in the younger generation through their application in the modern educational process.

**Keywords:** ritual songs, oral folklore, social essence, national values, aesthetic education, music education, folklore studies, spiritual heritage.

**MEHNAT MAROSIM QO'SHIQLARINING IJTIMOY MOHIYATI****Ismoilov Doston Eshmamat o'g'li**

Uzun tumani 44-umumta'lim maktabi o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'zbek xalqining ko'p asrlik madaniy merosida muhim o'rin tutgan marosim qo'shiqlarining ijtimoiy va ma'naviy mohiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda ularning xalq hayotidagi funksional vazifasi, estetik va tarbiyaviy ahamiyati, shuningdek, musiqa ta'limi tizimidagi o'rni yoritilgan. Muallif tomonidan yangi ilmiy yondashuv sifatida marosim qo'shiqlari xalqning "emotsional arxivi" sifatida talqin etilib, ularning zamonaviy ta'lim jarayoniga tatbiq etilishi orqali yosh avlodda milliy estetik did va qadriyatlarini shakllantirish zarurligi ta'kidlanadi.

**Kalit so'zlar:** marosim qo'shiqlari, xalq og'zaki ijodi, ijtimoiy mohiyat, milliy qadriyatlar, estetik tarbiya, musiqa ta'limi, folklorshunoslik, ma'naviy meros.

**Аннотация:** В статье анализируется социальная и духовная сущность обрядовых песен, сыгравших важную роль в многовековом культурном наследии узбекского народа. Раскрывается их функциональная роль в жизни народа, эстетическое и воспитательное значение, а также место в системе музыкального образования. Автор, в рамках нового научного подхода, трактует обрядовые песни как «эмоциональный архив» народа и подчёркивает необходимость формирования национальных эстетических вкусов и ценностей у подрастающего поколения посредством их использования в современном образовательном процессе.

**Ключевые слова:** обрядовые песни, устное народное творчество, социальная сущность, национальные ценности, эстетическое воспитание, музыкальное воспитание, фольклористика, духовное наследие.

O‘zbek xalqining ko‘p asrlik ma‘naviy madaniyati ichida marosim qo‘shiqlari alohida o‘rin tutadi. Ular xalq hayotining eng muhim bosqichlarini – tug‘ilish, voyaga yetish, nikoh, mehnat, mavsumiy bayramlar va boshqa ijtimoiy jarayonlarni – badiiy ifoda etuvchi og‘zaki musiqiy meros sifatida shakllangan. Marosim qo‘shiqlari insonning ijtimoiy hayoti, urf-odatlarini, qadriyatlarini, shuningdek, milliy tafakkurini yoritishda muhim o‘rin egallaydi. Ular xalqning tarixiy xotirasi va estetik qarashlarini saqlovchi ma‘naviy ko‘prik bo‘lib, o‘tgan avlodlar bilan bugungi kun o‘rtasida uzviy bog‘liqlikni ta‘minlaydi.

Marosim qo‘shiqlari nafaqat musiqiy, balki tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan ijtimoiy hodisa sifatida xalq hayotining ajralmas qismiga aylangan. Ular orqali inson mehnat, muhabbat, sadoqat, mehr-oqibat, sabr-toqat kabi qadriyatlarni anglaydi va hayotiy tajriba sifatida qabul qiladi. Shu jihatdan marosim qo‘shiqlari xalq og‘zaki ijodining eng qadimiy va murakkab qatlamlaridan biri bo‘lib, ularning mazmunida jamiyatning axloqiy me‘yorlari, estetik didi va ijtimoiy ideallari mujassamdir.

Bugungi kunda bu janrni o‘rganish musiqa ta‘limi jarayonida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki marosim qo‘shiqlari o‘quvchilarda milliy ruh, estetik zavq va xalq musiqasiga muhabbatni shakllantirishga xizmat qiladi. Ularni o‘rgatish jarayonida o‘qituvchi nafaqat musiqiy savod, balki o‘z xalqining urf-odatlarini, qadriyatlarini va madaniyatiga hurmat ruhini singdiradi. Shu orqali xalq musiqasi o‘quvchilarning shaxsiy ongida milliy o‘zlikni mustahkamlovchi, madaniy identitetni shakllantiruvchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Marosim qo‘shiqlarining ijtimoiy hayotdagi o‘rni va ahamiyati haqida Sh. Turdiyev shunday yozadi: “Xalq qo‘shiqlari mehnatkashlarning orzu-umidlari, turmushi va axloqini, sotsial va milliy ozodlik uchun kurashini ifoda etuvchi san‘at namunalaridir” [Turdiyev; 2023]. Bizning fikrimizcha, bu mulohaza marosim qo‘shiqlarining xalq hayotida faqat estetik hodisa emas, balki ijtimoiy ongni shakllantiruvchi, milliy birlikni mustahkamlovchi ma‘naviy omil sifatidagi mohiyatini ochib beradi. Zero, bunday qo‘shiqlar xalqning o‘ziga xos dunyoqarashi, hayotga munosabati va ijtimoiy qadriyatlarini avloddan avlodga yetkazish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois, marosim qo‘shiqlarini o‘rganish nafaqat folklorshunoslik, balki pedagogika va madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan ham dolzarb ilmiy masalalardan biridir.

O‘zbek folklorshunosligida marosim qo‘shiqlari xalq ijodining eng qadimiy, sinkretik va ijtimoiy jihatdan boy qatlamlaridan biri sifatida talqin etiladi. Tadqiqotchi O. Ibrohimov marosim qo‘shiqlarini “xalq badiiy tafakkurining ijtimoiy tajribasini musiqiy obrazlarda mujassamlashtiruvchi o‘ziga xos san‘at turi” deb ta‘riflaydi [Ibrohimov, 1992]. Bu fikr shuni ko‘rsatadiki, marosim qo‘shiqlari inson hayotidagi muhim voqealar – tug‘ilish, mehnat, nikoh, hosil bayrami yoki motam – kabi jarayonlarni musiqiy ifoda orqali ijtimoiylashgan shaklda aks ettiradi. Ya‘ni bu qo‘shiqlarda xalq o‘z kechinmasini, dunyoqarashini, shodlik va qayg‘usini ifoda etgan. Bizningcha, aynan shuning uchun bu janr zamonaviy jamiyatda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan, aksincha, milliy o‘zlikni anglash vositasiga aylangan.

Sh. Turdiyev esa marosim qo‘shiqlarining ijtimoiy hayotdagi o‘rnini quyidagicha izohlaydi: “Xalq qo‘shiqlari mehnatkashlarning orzu-umidlari, turmushi va axloqini, sotsial va milliy ozodlik uchun kurashini ifoda etuvchi san‘at namunalari” [Turdiyev, 2023]. Bu fikrda xalq qo‘shiqlarining ijtimoiy-madaniy mohiyati aniq ko‘rinadi. Chunki ular xalq ruhiyatining tarixiy aks-sadosi, xalqning hayot haqidagi falsafiy qarashlari, mehnat jarayonidagi birdamlik tuyg‘ularining badiiy in‘ikosidir. Bizningcha, Turdiyev aytgan “kurash” so‘zi bu yerda faqat siyosiy ma’noda emas, balki insonning hayot sinovlariga, vaqt o‘tishiga va turmushdagi qiyinchiliklarga qarshi ma’naviy kurashini ham ifodalaydi.

Folklorshunos J. Eshonqul marosim folklorini ijtimoiy-madaniy tizimning faol elementi sifatida tahlil qilib, shunday deydi: “Marosim qo‘shiqlari xalqning qadimiy ijtimoiy institutlari — urf-odat, udum va qadriyatlar tizimini avloddan avlodga uzatishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi” [Eshonqul, 2009]. Ushbu yondashuv marosim qo‘shiqlarining tarbiyaviy funksiyasini ochib beradi. Haqiqatan ham, marosim qo‘shiqlari orqali bola yoshlikdan o‘z xalqining hayot falsafasi, mehnatsevarligi, mehr-oqibati, halolligi va sabrini o‘rganadi. Demak, bu janr ijtimoiy merosning nafaqat madaniy, balki axloqiy ko‘rsatkichidir.

B. Sarimsoqovning “O‘zbek merosi va folklori” asarida esa marosim qo‘shiqlari milliy madaniyat tizimining “ijtimoiy birdamlikni mustahkamlovchi va estetik tarbiya beruvchi san‘at turi” sifatida e’tirof etiladi [Sarimsoqov, 2006]. Olimning bu fikri marosim qo‘shiqlarining estetik-falsafiy tabiatini yoritadi. Ularning badiiy mazmuni faqat musiqada emas, balki so‘zning ma’naviy kuchida, kuy va harakatning uyg‘unligida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham bu qo‘shiqlar xalq hayotining har bir bosqichida mavjud bo‘lib, o‘z vazifasini yo‘qotmay kelmoqda.

Yuqoridagi ilmiy qarashlar marosim qo‘shiqlarining ko‘p qirrali mohiyatini tasdiqlaydi: ular tarixiy, ijtimoiy, estetik va tarbiyaviy jihatdan inson hayotining barcha bosqichlariga singib ketgan. Ammo mavjud adabiyotlarda ayrim jihatlar yetarlicha yoritilmagan. Masalan, marosim qo‘shiqlarining psixologik ta’sir kuchi, ularning gender xususiyatlari (ayollar tomonidan ijro etiladigan allalar, “yor-yor”lar, marosim yallalari) va musiqiy pedagogik integratsiyasi haqida tahlillar yetarli emas.

Marosim qo‘shiqlari nafaqat o‘tmishning aks-sadosi, balki bugungi kunda ham ijtimoiy integratsiya va madaniy birlashuvni ta’minlovchi omil sifatida qaralishi kerak. Bu qo‘shiqlar xalqni birlashtiruvchi, millatlararo hamjihatlikni mustahkamlovchi ma’naviy maydon yaratadi. Har bir marosim qo‘shig‘i — u nikoh to‘yi, mehnat bayrami yoki mavsumiy tantana bo‘ladimi — o‘zida jamoaviy ruh, birdamlik va o‘zaro hurmatni mujassamlashtiradi. Shu sababli, ularni faqat folklor namunasi sifatida emas, balki ijtimoiy kommunikatsiya vositasi sifatida ham baholash lozim. Bugungi globallashuv davrida marosim qo‘shiqlari xalqni o‘z ildizlariga bog‘lab turuvchi, milliy o‘zlikni yo‘qotmaslikka xizmat qiluvchi kuchli madaniy mexanizmga aylanmoqda.

Ular xalqning tarixiy xotirasi bilan birga ma’naviy psixologiyasini ham saqlovchi “emotsional arxiv” vazifasini bajaradi. Har bir marosim qo‘shig‘i — bu xalq qalbining his-tuyg‘ulari, qadriyatlari va tarixiy xotirasining ifodasi. Undagi ohang, so‘z va harakat uyg‘unligi asrlar davomida shakllangan kollektiv ongini, ijtimoiy tajribani va milliy ruhni saqlaydi. Masalan, “yor-yor”, “alla”, “lapar”, “yalla” kabi janrlar o‘zbek xalqining ichki kechinmalari, quvonch va g‘am, umid va sabr singari ruhiy holatlarini badiiy shaklda yetkazadi. Shu sababli, marosim qo‘shiqlari oddiy musiqiy matn emas, balki xalqning ruhiy dunyosini, tarixiy xotirasini va emotsional merosini ifodalovchi ma’naviy hujjatdir. Ularni

o'rganish orqali millatning ichki hissiy energiyasi, estetik didi va ijtimoiy kayfiyatini anglash mumkin bo'ladi.

Marosim qo'shiqlarini zamonaviy musiqa ta'limida qo'llash esa yosh avlodda milliy estetik idrok va qadriyatlarini ongli ravishda shakllantirish uchun samarali metod sifatida e'tirof etilishi lozim. Bu qo'shiqlar o'quvchilarda milliy madaniyatni his etish, xalq musiqasiga hurmat bilan qarash, o'z milliy ildizlariga sadoqatni tarbiyalaydi. Shuningdek, marosim qo'shiqlarining o'quv jarayoniga kiritilishi nafaqat musiqiy savodxonlikni, balki estetik didni, emotsional idrokni, muloqot madaniyatini va jamoaviylik tuyg'usini rivojlantiradi. Chunki har bir marosim qo'shig'ida o'qitish uchun qulay bo'lgan intonatsion boyluk, ritmik aniqlik, so'z va his uyg'unligi mavjud. Shu bois, xalq musiqasi, xususan marosim qo'shiqlarini musiqa ta'limi tizimiga faol tatbiq etish milliy musiqa pedagogikasining nazariy va amaliy asoslarini yanada boyitadi. Shu o'rinda ba'zi bir qo'shiqlar tahliliga e'tiborimizni qaratsak.

Yig'lama qiz, yig'lama,

To'y seniki, yor-yor.

Ostonasi tillodan

Uy seniki, yor-yor.

Mazkur qo'shiq to'y marosimlarining markaziy ritual elementlaridan biri bo'lib, u kelinning yangi hayotiga duo-tilaklar, oilaviy baraka va jamoaviy tasdiqni ifodalaydi. Olimlar izlanishlari shuni ko'rsatdiki, to'y qo'shiqlari marosimning ssenariyiy-ritual funksiyasini mustahkamlaydi va jamiyat ichidagi ijtimoiy rol-o'zgarishlarni musiqiy-so'zli belgi orqali belgilar ekan.

Tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, bunday qo'shiqlar ijtimoiy institut vazifasini bajaradi: ular urf-odatlarini mustahkamlaydi, jamoaviy birdamlikni va ijtimoiy identifikatsiyani kuchaytiradi. Bizning fikrimizga ko'r "Yor-yor" naqorati bugungi kunda ham ijtimoiy integratsiya vazifasini bajarishi uchun sahna va media formatlarida (video, audio, interaktiv taqdimotlar) qayta ijtimoiylashtirilishi mumkin — shunda to'y marosimining an'anaviy semantikasi raqamli muhitda ham jamoaviy birlashuvni muhofaza qiladi.

Yallama, yorim, yallolashaylik — to'rtta-beshta bir bo'lib, xasratlashaylik...

Mazkur qo'shiq ko'proq jamoaviy o'yin, raqs va ziyofat vaziyatlarida ishlatiladi. Uning ritmik takroriyliigi va kolektiv ijrosi ijtimoiy hamjihatlikni, guruh ichidagi ritm va muvofiqlik hissinii shakllantiradi.

Olimlar nuqtai nazariga ko'ra, marosim qo'shiqlari jamiyatdagi urf-odatlarini doimiyashtiradi va ijtimoiy rollarni mustahkamlaydi — aynan shu naqoratlarda ham aniq ko'rinadi. Fikrimzcha, "Yallama" kabi jamoaviy naqoratlarni maktab va mahalla festivallarida faol tatbiq etish orqali yoshlar orasida hamjihatlik va musiqiy jamoat madaniyatini mustahkamlash mumkin — ya'ni ular ijtimoiy integratsiyaning "praktik maydonchasi"ga aylanadi.

O'zbek xalqining marosim qo'shiqlari milliy madaniyatning eng qadimiy, eng jozibador qatlamlaridan biridir. Ular xalq hayoti, urf-odatlari va qadriyatlarini musiqiy so'z bilan ifoda etish orqali millatning o'zlikni anglashida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqot davomida ko'rish mumkinki, marosim qo'shiqlari faqat folklor janri sifatida emas, balki jamiyatdagi ijtimoiy integratsiya, birdamlik va ma'naviy uyg'unlikni mustahkamlovchi kuchli omil sifatida ham ahamiyat kasb etadi. Ularning shakl va mazmunidagi badiiy uyg'unlik xalq tafakkurining estetik darajasini, ruhiy olamini, hayotga bo'lgan falsafiy qarashini yorqin ifodalaydi.

Marosim qo'shiqlari bugungi kunda ham xalq hayotida o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q. Ularning zamonaviy musiqa ta'limi tizimiga tatbiqi yosh avlodda milliy o'zlikni anglash, xalq musiqasiga mehr uyg'otish, estetik did va hissiy idrokni shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Shuningdek, bu qo'shiqlarni o'rganish va targ'ib etish orqali jamiyatda qadriyatlar izchilligini saqlash, milliy merosni asrab-avaylash hamda uni global madaniy muhitga uyg'unlashtirish imkoniyati kengayadi.

Xulosa qilib aytganda, marosim qo'shiqlari xalqning ijtimoiy xotirasi, ma'naviy psixologiyasi va estetik tafakkurini mujassamlashtirgan nodir badiiy fenomen sifatida milliy madaniyatning ajralmas qismi bo'lib qolaveradi. Ularni o'rganish, o'qitish va amaliyotda qo'llash orqali nafaqat milliy musiqiy merosni, balki xalqning ruhiy merosini ham kelajak avlodlarga yetkazish mumkin.

#### **Foydalanilgan Adabiyotlar:**

1. Ibrohimov, O. O'zbek xalq og'zaki ijodi: marosim folklori. Toshkent: Fan nashriyoti, 1992.
2. Turdiyev, Sh. "Oilaviy marosim qo'shiqlarni musiqa ta'limi jarayonida o'rganish." San'at tizimida sifatli ta'lim samaradorligini takomillashtirish muammolari: innovatsion yondashuvlar. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami, Farg'ona, 2023.
3. Eshonqul, J. "Marosim folklori xalq madaniyatining ijtimoiy tizimida." Folklorshunoslik masalalari. Toshkent: Fan, 2009.
4. Sarimsoqov, B. O'zbek merosi va folklori. Toshkent: Yozuvchi, 2006.
5. Karimova, N.A. "O'zbek marosim folklori haqida tushuncha." Inter Education & Global Study, 2024. URL: <https://ilmiyxabarlar.kspi.uz/index.php/journal/article/view/477>
6. Nuriddinov, G. "O'zbek xalq marosim qo'shiqlarining etnografik tahlili." Central Asian Journal of Academic Research, 2025. URL: <https://cajar.asia/index.php/CAJAR/article/view/309>
7. UNESCO. Intangible Cultural Heritage: Traditional Music and Ritual Songs. 2022. URL: <https://ich.unesco.org/en/>